

TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchi

Karimova Mavzuna Xayrullo qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchi

Annotatsiya: Raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta'lim va ilmiy sohalarda yuqori tezlikda o'zgarib turib, jamiyatning har bir sohasiga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa bu yoshlarning kasb-hunarga tayyorlash jarayonida juda foydali hisoblanadi. O'z o'rnida maqsadli foydalanilgan raqamli texnologiyalar bilan qarab olingan darslar, mashg'ulotlar o'rganuvchilarga ko'plab imtiyozlar berdi. Eng e'tiborga molik jihati bu kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish yoshlarda kreativlik va tajribalarini oshirishda juda muhim.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, interaktiv, platforma, optimallashtirish, ta'lim resurslari, marketing, raqamli dunyo, virtual simulyatsiya, elektron darslar.

Ta'limda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi XXI asrda katta o'zgarishlar keltirib chiqardi. An'anaviy ta'lim uslublaridan raqamli platformalar va vositalarga o'tish jarayoni yangi imkoniyatlar va yangi muammolarni olib keldi. Ushbu tezida raqamli texnologiyalarning ta'limdagi ahamiyati, afzalliklari va qiyinchiliklari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi biz yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashimizga katta ta'sir ko'rsatdi. Bizning dunyomiz tobora o'zaro bog'langan va texnologiyaga bog'liq bo'lib borayotganligi sababli, ta'lim muassasalari uchun raqamli savodxonlik va texnik ko'nikmalarni o'z o'quv dasturlariga kiritish juda muhim. Quyida biz raqamli texnologiyalarning ahamiyati va bu boradagi kamchiliklarni ko'rib chiqamiz.

Raqamli Texnologiyalarning Ahamiyati

1. Ta'limning globalizatsiyasi: Raqamli texnologiyalar orqali talabalar va o'qituvchilar global miqyosda o'zaro bog'lanib, bilim va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Masofaviy ta'lim va onlayn kurslar dunyo bo'ylab ta'lim olishni osonlashtirdi.

2. Individual ta'lim dasturlari: Raqamli vositalar yordamida har bir ta'lim oluvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim dasturlari ishlab chiqish mumkin. Bu ta'lim oluvchilar uchun yanada samarali o'rganish jarayonini ta'minlaydi.

Afzalliklari

1. Interaktivlik va qiziqarli ta'lim: raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. Multimediali materiallar, virtual reallik (VR) va o'yinlar o'qishni yanada jalb etuvchi qiladi.

2. Resurslarga keng kirish imkoniyati : internet orqali o'quvchilar keng miqdordagi resurslarga, shu jumladan, elektron kitoblar, maqolalar, videolar va boshqa o'quv materiallariga kirishlari mumkin.

3. Moslashuvchanlik: Onlayn ta'lim platformalari o'quvchilarga o'z vaqtlarini boshqarish imkonini beradi, bu esa ularning o'qish va ishlash jadvalini moslashtirishlariga yordam beradi. Shu bilan birga raqamlashtirish jarayonida ham br qancha qiyinchiliklar uchrab turadi.

1. Texnologik imkoniyatlarning yetishmasligi: Ba'zi hududlarda internet va zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi talabalarning raqamli ta'limdan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

2. Texnologik savodxonlik: O'qituvchilar va o'quvchi yoshlar orasida raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan texnologik savodxonlik darajasi har xil bo'lishi mumkin.

3. An'anaviy holda o'zaro fikr almashishning yo'qligi: an'anaviy sinfxona muhitida yuzma-yuz o'zaro aloqa va munosabatlar o'rnini raqamli platformalarda to'liq qoplay olish qiyin bo'lishi mumkin.

Ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rne beqiyosdir. Ular ta'lim jarayonini yanada samarali, moslashuvchan va qiziqarli qiladi. Shunga qaramay, raqamli ta'limni muvaffaqiyatli joriy qilish uchun texnologik imkoniyatlarni oshirish, texnologik savodxonlikni rivojlantirish va shaxsiy aloqani saqlab qolish muhimdir. Raqamli texnologiyalarni ta'limga muvaffaqiyatli integratsiya qilish orqali biz kelajak avlodlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nuraliyeva, F. A. qizi, & Karimova, M. X. qizi. (2024). SUN'IY INTELLEKTNING KOMPYUTER GRAFIKASIGA BOG'LANISH BOSQICHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(1), 65–68.
2. Karimova, M. X. qizi, Nuraliyeva, F. A. qizi, & Abdurahimova, G. J. qizi. (2024). PYTHON DASTURLASH TILIDA MATNLI XABARLARNI AUDIO XABAR KO'RINISHDA HOSIL QILIB BERUVCHI ALGORITM HOSIL QILISH TASNIFI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3 SPECIAL), 301–306.
3. Abdumo'minov, B. S. o'g'li, & Nuraliyeva, F. A. qizi. (2023). DASTURLASH TILLARI VA ULARNI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 309–314.
4. Nuraliyeva, F. A. qizi, & Karimova, M. X. qizi. (2024). YUQORI CHASTOTALI SOHADAGI DISPERSIYALI MUHITDA TO'LQINLAR HARAKATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(3 SPECIAL), 241–245.
5. Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates***. London: Bloomsbury Publishing.
6. Nuraliyeva, F. A. qizi. (2023). MOTION OF STATIONARY NON-LINEAR WAVES. *Confrencea*, 5(05), 250–253